



TO'G'RIDAN - TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALAR OQIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

PROGNOZLASHTIRISH VA MAKROIQTISODIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI

TAYYORLOVCHI

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT LOYIHA
MAKRO LOYIHA

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda geografik joylashuv omillarining ahamiyati

Kirish

Xalqaro savdo va investitsiya to'siqlarining kamayishi, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha iqtisodiy va siyosiy islohotlar natijasida global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1990-yildagi taxminan 204 mlrd. dollardan 2016-yilda 1,75 trln. dollargacha oshdi (UNCTAD 2018). Shu jumladan, iqtisodiyoti bozor tamoyillariga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1993-yildagi 8,5 mlrd. dollardan 2016-yilda 180 mlrd. dollargacha oshdi (Jahon banki 2017). Biroq, barqaror iqtisodiy o'sish, bozorning katta hajmi, tabiiy resurslarning ko'pligi va arzon inson kapitali kabi investitsion jozibador xususiyatlariga qaramay, MDH mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi sezilarli darajada past bo'ldi (Okafor va Webster 2015). Misol uchun, 2002-yilda iqtisodiyoti bozor tamoyillariga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarga jalb qilingan 36,7 mlrd. dollar miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 75 foizi Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Boltiqbo'yi mamlakatlariga yo'naltirildi. 2016-yilda birgina Vengriyaga 69,8 mlrd. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lsa, butun MDH hududida ushbu ko'rsatkich 63,7 mlrd. dollarni tashkil etdi (Jahon banki 2017).

Bundan tashqari, ishbilarmonlik muhitidagi ko'plab o'xshashliklarga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining mintaqaviy taqsimoti juda notekis bo'lib, ularning asosiy qismi Rossiya va Qozog'iston ulushiga to'g'ri kelmoqda. 2016-yilda ushbu ikki davlatga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi butun MDH bo'yicha ko'rsatkichning 77 foizini tashkil qildi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ko'rsatkichi ham mintaqa bo'ylab sezilarli darajada farqlandi va maksimal tafovut Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida kuzatildi: 2008-yilda mos ravishda 1073 dollar va 26 dollar (Jahon banki 2017). Alohida qayd etish lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sish, bandlik, zamonaviy boshqaruv tizimi, texnologik "nou-xau" va ilg'or texnologiyalarning asosiy manbasi bo'lishi mumkinligi haqidagi ko'plab dalillarga qaramasdan (Neuhaus 2006; Apergis va boshqalar 2008; Mehic va boshqalar 2013) MDH davlatlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha urinishlari samarasiz bo'ldi. Shu sababli, o'tish davridagi iqtisodiyot uchun, ayniqsa, ularning katta investitsiyalarga ehtiyoji va ichki jamg'armalarning cheklanganligi sababli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhimligini inobatga olgan holda (Shiells 2003; Dubrovskiy va Ustenko 2009), MDH mamlakatlar iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar, shubhasiz, tashvish uyg'otadi.

Natijalar

1-jadvalda Prais-Winsten hisob-kitoblari keltirilgan bo'lib to'liq namuna uchun heteroskedastiklik va avtokorrelyatsiyaga chidamli panellar bilan standart xatolar tuzatilgan. 4-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, 6-8-modellardagi standart spetsifikatsiyalar mavjud adabiyotlarga mos keladigan umumiy xulosalarga olib keladi.

1-jadval: Prais-Winsten hisob-kitoblar (to'liq namuna uchun)

Bog'liq (mustaqil bo'lmagan) o'zgaruvchi: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi								
	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4	Model 5	Model 6	Model 7	Model 8
Doimiy (constant)	-3,616* (1,985)	14.845*** (1,189)	-4,763*** (1,783)	-2.120 (1,748)	-1,760 (1,736)	-1,282 (2,673)	-3.021 (2,144)	-4.160* (2,518)
Bozor o'zgaruvchilari								
Bozor hajmi	0,923*** (0,074)		0,870*** (0,066)	0,741*** (0,073)	0,746*** (0,066)	0,716*** (0,102)	0,790*** (0,077)	0,839*** (0,095)
Savdo ochiqligi	0,016*** (0,003)		0,018*** (0,003)	0,017*** (0,003)	0,013*** (0,003)	0,016*** (0,004)	0,014*** (0,003)	0,014*** (0,003)
Tabiiy resurslar	0,270*** (0,078)		0,278*** (0,082)	0,210** (0,086)	0,056 (0,102)	0,216** (0,089)	0,010 (0,107)	0,000 (0,111)
Tashqi qarz	-0,044 (0,099)		-0,235** (0,098)	-0,294*** (0,093)	-0,178** (0,088)	-0,248** (0,098)	-0,173** (0,087)	-0,175** (0,088)
Institutsional o'zgaruvchilar								
Iqtisodiy erkinlik (Economic Freedom)		0,096*** (0,017)	0,025** (0,010)	0,048*** (0,015)	0,039*** (0,010)	0,048*** (0,014)	0,041*** (0,010)	0,034*** (0,013)
Qonun ustuvorligi (Rule of Law)		0,006 (0,012)	0,030*** (0,009)	0,025*** (0,008)	0,016** (0,008)	0,027*** (0,008)	0,013 (0,008)	0,012 (0,008)
Korrupsiyaga qarshi nazorat (Control of Corruption)		0,007 (0,011)	-0,000 (0,007)	-0,004 (0,007)	0,002 (0,005)	-0,004 (0,006)	0,001 (0,005)	0,003 (0,005)
Siyosiy barqarorlik (Political Stability)		0,006 (0,007)	-0,001 (0,005)	0,003 (0,005)	-0,001 (0,004)	0,003 (0,005)	-0,000 (0,004)	-0,002 (0,005)
Geografik o'zgaruvchilar								
Dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligi				-0,840*** (0,365)		-0,902*** (0,381)		0,326 (0,457)
Dengizga chiqish imkoniyati					1,022*** (0,261)		1,038*** (0,245)	1,174*** (0,338)
Nazorat o'zgaruvchilari								
Bozorning jozibadorligi						0,012 (0,009)	0,012 (0,009)	0,012 (0,009)
Ishsizlik						-0,016 (0,032)	0,026 (0,026)	0,036 (0,032)
Kuzatishlar	180	180	180	180	180	180	180	180
R ²	0,896	0,848	0,901	0,902	0,896	0,900	0,888	0,887
Wald Chi ²	175.07	29.62	249.35	269.04	414.30	298.00	545.49	574.92
Rho	0,6273	0,7626	0,5925	0,5707	0,4915	0,5544	0,4384	0,4352

Eslatma: Barcha PCSE bilan bog'liq hisob-kitoblarda Prais-Winsten regressiyasidan foydalanilgan. Panellarning tuzatilgan standart xatolari qavslar ichida berilgan hamda ***, ** va * 0,01, 0,05 va 0,10 darajalarida ahamiyatlilikni bildiradi.

1-2 modellar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining bozor va institutsional omillari uchun regressiya natijalarini ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bozor hajmi, savdo ochiqligi, tabiiy resurslar va iqtisodiy erkinlik MDH mamlakatlari iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga statistik jihatdan muhim va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor va institutsional o'zgaruvchilar kiritilganda tashqi qarz va qonun ustuvorligi 3-modelda statistik ahamiyatga ega bo'ladi. Tashqi qarz koeffitsienti salbiy, qonun ustuvorligi esa ijobiy. Shubhasiz, kattaroq qarz yuklari yuqori mamlakat risklarini keltirib chiqaradi va shuning uchun xorijiy investorlar uchun unchalik jozibador emas. Bundan tashqari, tashqi qarz investitsiyalarni moliyalashtirishning muqobil manbasi hisoblanadi, buning natijasida tashqi qarz ortib borayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini almashtirish effekti tufayli uni to'xtatib qo'yishi mumkin. Boshqa tomondan, qonun ustuvorligining ijobiy koeffitsiyenti ishonchli huquqiy tizimlarni ta'minlash, xorijiy investorlarni himoya qilish va adolatli bozor raqobatiga o'tish to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirishini ko'rsatadi.

4-modelda biz jismoniy geografik joylashuvning noqulayligi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini cheklashi yoki cheklamasligini tekshirish uchun dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlarni misol tariqasida olamiz. Natijalar shuni ko'rsatadiki, dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligi MDH mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga salbiy ta'sir qiladi. Salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligi koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi qirg'oq bo'yidagi davlatlarga nisbatan 56,8 foizga past.¹ Bu shuni anglatadiki, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi geografik joylashuv noqulayligi tufayli to'xtaydi. Dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligiga qaramasdan, bozor va institutsional o'zgaruvchilarning tegishli ta'siri va ahamiyatlilik darajasi saqlanib qoladi. 5-modelda biz qulay geografik joylashuv to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ustunlikni ta'minlab berishi yoki bermasligini tekshirish uchun dengizga chiqish imkoniyati ko'rsatkichini hisoblab olamiz. Dengizga chiqish imkoniyati mavjudligi koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy bo'lib, hududiy qirg'oq chizig'iga ega bo'lgan MDH mamlakatlari boshqalarga qaraganda o'rtacha 177,8% ko'proq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ega bo'ladilar.² Bundan tashqari, tabiiy resurslar koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib, dengizga chiqish imkoniyati bo'lgan mamlakatlarda tabiiy resurslarning yetishmasligi xorijiy investorlar uchun noqulaylik tug'dirmasligini ko'rsatadi.

¹ Wooldridge (2016) Qachon $\widehat{\beta}_1$ dummy o'zgaruvchining koeffitsienti bo'lsa va $\log(y)$ bog'liq o'zgaruvchi bo'lsa, $x_1 = 0$ nisbatan $x_1 = 1$ uchun prognoz qilingan y dagi aniq foiz farqini $100 * [\exp(\widehat{\beta}_1) - 1]$ foydalangan holda hisoblash mumkin. $100 * [\exp(-0.840) - 1] = 100 * (-0.568289) \approx -56.8\%$.

² Qachon $\widehat{\beta}_1$ dummy o'zgaruvchining koeffitsienti bo'lsa va $\log(y)$ bog'liq o'zgaruvchi bo'lsa, $x_1 = 0$ nisbatan $x_1 = 1$ uchun prognoz qilingan y dagi aniq foiz farqini $100 * [\exp(\widehat{\beta}_1) - 1]$ foydalangan holda hisoblash mumkin. $100 * [\exp(1.022) - 1] = 100 * (1.778) \approx 177.8\%$.

6-8 modellar standart hisob-kitoblar bo'lib, biz oldingi modellardagi regressiya baholarini bozorning jozibadorligi va ishsizlik uchun nazorat qilamiz. Hisob-kitoblarga ko'ra, ikkala nazorat o'zgaruvchisi ham statistik ahamiyatga ega emas va bizning modellarimizga ta'sir ko'rsatmaydi, 7 va 8-modellardagi qonun ustuvorligi bundan mustasno. 8-modelda biz dengizga chiqish imkoniyati uning mavjud emasligining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga salbiy ta'sirini yumshata olish olmasligini tekshirish maqsadida ikkala geografik o'zgaruvchilarni bitta regressiyaga kiritamiz. Dengizga chiqish koeffitsiyenti ahamiyatga ega va ijobiy bo'lib, hududiy dengizga chiqish imkoniyati to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirayotganini aks ettiradi, dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligi esa statistik jihatdan ahamiyatga ega emas. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, dengizga chiqish imkoniyati yumshatuvchi ta'sirga ega bo'lib, dengizga chiqish imkoniyati mavjud bo'lmagan MDH mamlakatlarida uning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga bo'lgan salbiy ta'sirini neytrallashtirishi mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot doirasida 2002-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda 12 davlatdan iborat panel asosida MDH mintaqasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga bozor, institutsional va geografik o'zgaruvchilarning ta'siri baholandi. Bizning hisob-kitoblarimiz shuni ko'rsatadiki, bozor hajmi, savdo ochiqligi, tabiiy resurslar, iqtisodiy erkinlik, qonun ustuvorligi va dengizga chiqish imkoniyati iqtisodiyoti bozor tamoyillariga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantiradigan muhim omillar hisoblanadi. Bundan farqli o'laroq, tashqi qarz va dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni to'xtatib turadi. Aksincha, korrupsiyani nazorat qilish va siyosiy barqarorlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatga ega ekanligi aniqlanmadi. Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar uchun transport xarajatlari yuqoriroq ekanligi va kengroq bozorlarga kirish cheklanganligi sababli dengizga chiqish imkoniyati va uning mavjud emasligi koeffitsientlari nisbiy afzalliklarni aks ettiradi. Shunga qaramay, dengizga chiqish imkoniyati mavjud emasligining salbiy ta'sirini dengizga chiqish yo'li bilan yumshatish mumkinligi ham aniqlandi, bu esa sohilbo'yi mamlakatlarida va dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan qirg'oqbo'yi mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi MDH mintaqasida sezilarli darajada farq qilmasligini ko'rsatadi. Nazorat o'zgaruvchilari ko'rsatkichlari, empirik modeldagi o'zgarishlar va endogenlik muammosi ko'rib chiqilishiga qaramay, ushbu ko'rsatkichlar statistik ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda, bu esa jismoniy geografik joylashuv haqiqatan ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Iqboljon Qosimov
PMTI loyiha rahbari v.b
Hayot Saydaliyev
PMTI loyiha rahbari